

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi



Chiroyli,
ammo
ahmoq
podshoh



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada


©2013 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.


Lekin u sotilmaydi.




Isroil etakchisi va hakami
Shomuil keksayib qolgandi.
Shuning uchun u o'zining
o'rniga o'g'illarini
hakam qilib tayinladi.
Ammo o'g'illari yaxshi
emas edi. Ular pullarni
yaxshi korar, noto'g'ri
yo'llar bilan boylik
orttirar edi.




Isroilliklar ulardan azob chekardi. Odamlarga yordam kerak bo'lsa, ular Shomuilni o'g'illariga pul to'lashi kerak edi.




Ammo bunga chek qo'yish kerak edi. Shuning uchun Isroil yetakchilari yig'ilib, Shomuidan yordam so'rashdi.




Ular: "Bizlarga podshoh ber, toki u bizga hakam bo'lsin", deb talab qilishdi. Ular Shomuilni o'g'illari hakam bo'lishini istashmadi.





Bundan Shomuilni
jahli chiqdi. Axir
Isroilni podshohi bor
edi! Buyuk va Qudratli
Xudovand Isroilni
boshqarardi.






Bir
paytlar
Xudovand


Isroil xalqini Misr
qulligidan ozod qilgandi.
Xudo ularga qochishlari
uchun Qizil dengizni
o'rasidan yo'l ochib bergan.
So'ng Xudovand ularga
Isroil yerini bergan.



Shomuil Xudoga ibodat qildi, Xudovand shunday javob berdi: "Ular seni emas, balki Meni rad etishdi. Ular butlarga sajda qilib, uni o'zlariga podshoh qilishdi."



Xudo Shomuilga dedi:



"Odamlarga ayt, ularning yerdagi podshohi ulardan soliqlar undiradi; o'zi uchun ularning dala va uzumzorlaridan istaganicha foydalanadi; ... o'g'illarini harbiy xizmatga yuboradi va qizlarini o'zi uchun xizmatkor qilib oladi".



ROYAL VINEYARD

Bularga
qaramasdan
odamlar baribir
podshoh
talab
qilishdi.

KEEP OUT





Xudo Shomuilni juda yosh, baland bo'yli yigitning yoniga yetakladi. Uning ismi Shoul edi. Xudo Shomuilga shu yigit podshoh bo'lishini aytdi.






Shomuil Xudoga itoat etib, Shoulni podshoh qilib tayinladi. U podshohni xalqqa tanishtirganda, xalq: "Podshohimizni umri uzoq bo'lsin", deb xitob qildi.



Tez orada podshoh Shoul sinaldi. Isroilliklarni yomon ko'radigan Ommon xalqi ularga hujum qilishni rejalashtirdi. Podshoh Shoul bu xabarni eshitib, o'z qo'shinini jangga tayyorladi.






Ikki qo'shin
jang qilganda,
Shoul qo'shini
g'alaba qildi.
Shunda Shoul
Xudoga: "Bugun
Xudovand
Isroilni
g'alabaga
erishtirdi", -
deya hamdu
sano aytdi.



Xudo Shoulga buyuk g'alaba qilishga yordam berdi. Ammo Shoul doim ham Xudoga itoat etmasdi. Bir kuni Filistlar bilan jang qilishdan oldin, u Xudoga atab qurbonlik keltirishi kerak edi. Bu Shomuilning vazifasi bo'lib, Xudo shunday bo'lishini istashini Shoul bilardi. Lekin u Xudoga itoatsizlik qildi!




Shunda Shomuil kelib, Shoulga shunday dedi: "Sen Xudoning amriga itoatsilik qilding. Shuning uchun shohliging boshqa davom etmaydi."



Shoul qilgan ishlari katta gunoh emas, deb o'ylashi mumkin edi. Ammo Xudoga itoat etmaslik bu juda ham jiddiy narsa!



Yana bir jangda Xudo Shoulga
Omalek xalqini yo'q qilishni
buyurdi, chunki ular yovuz
odamlar edi. Ammo Shoul
Omalek shohi O'gahni



o'ldirmadi.
Shuningdek
ularning
podalarini ham
olib qolishdi.
Shoul bularni
qurbonlik uchun
olib qolganini
aytdi.





Shunda Shomuil Shoulga:
"Itoat etish har qanday
qurbonlikdan a'loroqdir.
Sen Xudoning amrini
bajarmaganing uchun endi
Isroil ustidan podshohlik
qilmaysan!" -dedi. Lekin
Shoul qilgan gunohi uchun
tavba qildi. Ammo Xudoga
itoat etmagani
uchun qolgan umri
baxtsizlikda
o'tdi.



Chiroyli, ammo ahmoq podshoh

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan


...dan topilgan

1 Shohlar 8-16

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130





Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

